



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA POLIMER LOYIDAN GUL PANNOSINI YARATISH TEKNIKASI

Z.I. Jurayeva

SamDU Urgut filiali o‘qituvchisi

R.L. Amirqulova

SamDU Urgut filiali, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada polimer loyi, polimer loyini tayyorlash usuli va undan sodda ko‘rinishdagi gul pannosi yaratish orqali dekorativ (bezakli) rasm tayyorlash usuli keltirilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga gul pannosini yaratish texnikasi bosqichma-bosqich texnologik ketma-ketlik bilan turli xil rangdagi polimer loyidan foydalanib tayyorlash usuli yoritib berilgan.

Kalit sio‘z: polimer loyi, gul pannosi, o‘quvchilar, mehnatga tayyorlash, zargarlik buyumlari.

ABSTRACT

This article presents polymer clay, a method for preparing polymer clay, and a method for making a decorative (decorative) painting by creating a simple flower panel. It also explains the technique of creating a flower panel for elementary school students, using a step-by-step technological sequence using polymer clay of different colors.

Key words: polymer clay, flower panel, students, preparation for work, jewelry.

KIRISH

Mamlakatimizda maktab ta’limini rivojlantirish, mazkur jarayonda ilg‘or va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, texnologiya fani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlashga mustahkam zamin yaratayotir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim dasturilamal hujjat bo‘ldi. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmonida 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1 — 4-sinflarida o‘quvchilarga boshlang‘ich, 5 — 9-

sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari joriy etilishi nazarda tutilganligi qayd etilgan [1].

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklar va imkoniyatlarga asoslangan qo‘l mehnati hisoblanadi. Shu bois texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlari o‘quvchilarning yoshiga mos qo‘l mehnati, axloqiy, estetik, iqtisodiy-ekologik va aqliy imkoniyatlarni aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilar bilan turli xil buyumlar yasash jarayonida duch kelinadigan atamalar va turli xil materiallar mavjud bo‘lib, ular haqida nafqat amaliy bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish balki nazariy bilimlarni ham egallab borishlari zarur hisoblanadi. Shu bois ushbu maqolaga oid atamlarga ta’rif berish o‘tishni lozim deb topdik.

Texnika (techne – mahorat, san’at) – moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofdagi tabiatga ta’sir qilishiga imkon beradigan vositalar va ko‘nikmalar majmui. Asosiy vazifasi – inson mehnatini yengillashtirish va mehnat unumдорligini oshirish [6].

Panno (frans. panneau – mato bo‘lagi) – 1) atrofi naqsh chiziq yoki bo‘rttirib ishlangan hoshiya bilan chegaralangan tasvir, bo‘rtma tasvir, naqshli devor bo‘lagi; 2) maxsus joyga mo‘ljallab ishlangan rangtasvir asari yoki bo‘rtma tasvir [7].

Boshlang‘ich sinfning to‘rtinchi sinflariga mo‘ljallangan texnologiya darsligida “Gazlamadan gul pannosini yaratish” mavzusi berilgan ushbu mavzuda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar gazlamadan panno yaratish jarayoni gazlamadagi gullardan hamda gazlamaning o‘zidan shakllar qirqish orqali amalga oshirilishi, buning uchun o‘zining tanlagan panno eskizini tayyorlab olishi kerakligi hamda kerak bo‘ladigan gazlama qiyqimini tanlab eskiz asosida gazlama qiyqimida shakllarni hosil qilib kompozitsiya yaratishi o‘rgatilgan [4]. Biz ushbu maqolada to‘rtinchi sinf o‘quvchilariga mustaqil ravishda ishlashlari uchun polimer loyidan gul pannosini yaratish texnikasini tayyorladik.

Polimer loyi – bezakli buyum (turli xil ko‘rinishdagi esdalik sovg‘a), zargarlik buyumlari (ayollar xalqa, uzuk va boshqa) va haykaltaroshlik san’ati (teatr uchun qo‘g‘irchoqlar, bolalar uchun har xil o‘yinchoqlar)da keng foydalanib kelinayotgan plastik massa hisoblanadi. Polimer loyi elastikligi yuqori bo‘lgan material bo‘lib, uni germaniyalik olma Fifi Rexbinder ixtiro qilgan. Polimer loyidan yodgorlik va zargarlik buyumlari, bayram sovg‘alari, qo‘g‘irchoq, haykallar, kvilling va gullar

yasash mumkin [2]. Ushbu materialdan bugungi kunga kelib ta'lim jarayonida va professional ijodda ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Hozirgi kunda polimer loyini deyarli barcha idora ashyolari do'konlarida uchratish mumkin.

Polimer loyini tayyorlashning bir nechta usuli mavjud bo'lib, tarkibi bilan bir-biridan farq qiladi. Polimer loyi (sovuv chinni) buyum tayyorlovchining xohishiga va tayyorlayotgan mahsulotning ko'rinishiga qarab tanlanadi. Ayollar uchun polimer loyidan tayyorlangan zargarlik buyumi hisoblanadigan zirak (sirg'a) yasash mumkin [5]. Polimer loyi (sovuv chinni)ning ushbu turi elektr pechda qizdirib olinadi. Gul pannosini yaratish uchun foydalaniladigan turi ochiq havoda qotib tayyor bo'ladi. Ushbu polimer loyini quyida tayyorlash texnologiyasi bilan tanishtirib o'tamiz.

Kerakli mahsulotlar: kraxmal, limon sharbati, PVA yelimi, makkajo'xori uni, rang beruvchi qo'shimchalar, mineral moy, glitserin.

Polimer loyiga ishlov berish asboblari: ish uchun taglik, shaklli steklar, maxsus pichoqchalar, shaklli tayoqchalar, jo'va, qoliplar, sirli idish, yog'och qoshiq, sirli idish, rezina qo'lqoplar.

Kerakli jihozlar: bezakli rasm tayyorlash uchun 210*297 sm ramka, mum yelimi, chizmachilik qog'ozni, bezak uchun suniy gullar.

Polimer loyining tayyorlash texnologiyasi.

1. Sirli idishga 100 gr PVA yelimini iliq suvgaga solib iltiladi.
2. 100 gr kraxmal va 100 gr makkajo'xori uni solinib aralashtiriladi.
3. Hosil bo'lgan quyuq massaga me'yorga ko'ra mineral moy qo'shib aralashtiriladi.
4. Yarim osh qoshiq limon sharbati (7 ml), 1 tomchi glitserin qo'shib bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi.
5. Tayyor bo'lgan massaga ishlov berish qulay bo'lishi uchun me'yorga ko'ra qo'l krem solib bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi.
6. Tayyor bo'lgach, rang beruvchi qo'shimchalar qo'shib mumkin.
7. Polimer loyi yaxshi saqlanishi uchun yelim xaltalarda saqlash qulay hisoblanadi.

Polimer loyidan gul pannosini yaratish texnikasi.

Ishni bajarish tartibi:

1. Atirgulni tayyorlash uchun unga ketadigan massani olib kerakli rangni qo'shib bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtirib olamiz.
2. Atirgulni barglarini tayyorlash uchun taglikning ustida maxsus pichoqchada 6-12 donagacha doira shaklida polimer loyini bo'laklarga bo'lib olamiz.
3. Taglik ustida jo'va bilan bo'laklarni kerakli shaklga keltirib olamiz.
4. Xuddi shu tartibda hamma bo'laklarga ishlov berib olamiz.

5. Gulni g‘unchasini sariq rangga bo‘yalgan polimer loyidan tayyorlab olamiz.
6. Hosil bo‘lgan shakllarni g‘uncha atrofiga avval kichikroq atrofidan kattaroq yaproqlarni birin-ketin biriktirib olamiz.
7. 6 yoki 7 dona pushti, oq va sariq rangdagi atirgullarni tayyorlab olamiz.
8. Polimer loyidan tayyorlangan atirgullar 24 soat davomida ochiq havoda mustahkam qotib tayyor bo‘ladi.



1-rasm. Polimer loyidan toyyorlangan dekorativ (bezakli) rasm.

Gul pannosini yig‘ish.

9. Tayyor bo‘lgan atirgullarni mum yelimi yordamida chizmachilik qog‘oziga (har kim o‘z ijodidan kelib chiqib bezatish mumkin) yelimlanadi.

10. Qo‘srimcha bezatish uchun atirgullar atrofiga suniy gul yoki barglarni mum yelimi yordamida yelimlash mumkin.

Polimer loyining afzal jihatlari juda ko‘p. Polimer loyi yumshoq va elastik bo‘lgani uchun istalgan shaklni yasash mumkin. Oddiy asboblar bilan ham ishlov berish mumkin. Polimer loyini tayyorlagandan so‘ng yelim xaltada saqlash shart, chunki ochiq havoda qoladigan bo‘lsa u qotib qolishi va o‘z elastikligini yo‘qotishi mumkin. Shuning uchun ushbu mahsulotdan qandaydir buyum yasayotganda yarim soatdan ortiq ochiq havoda qolishi mummin emas. Ya’ni yarim soat ichida biz undan kerakli shakllarni tayyorlab olishimiz lozim bo‘ladi. Qotirilgandan so‘ng polimer loy

mahsulotlari bardoshli bo‘lib, uzoq vaqt davomida o‘z shaklini saqlaydi va suvgan chidamli hisoblanadi. Polimer loyi hunarmandlikda keng qo‘llanish imkoniyatlari mavjuddir. Jumladan, zargarlik buyumlari, haykallar, o‘yinchoqlar, uy bezaklari va boshqa mahsulotlarni tayyorlashda ishlataladi. Nozik bo‘laklarga ishlov berish uchun eng yaxshi material deyish mumkin. Polimer loyi turlari sanitariya va gigiyena talablariga amal qilinsa boshlang‘ich sing o‘quvchilari uchun ham xavfsiz material hisoblanadi.

XULOSA

Polimer loyi qulayligi, moslashuvchanligi, elastikligi va bardoshlilik xususiyatlari tufayli san’at va hunarmandlikda keng qo‘llaniliadigan material hisoblanadi. Ranglarining turfaligi, unga ishlov berish jarayonining oddiyligi va keng qo‘llanilish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, ekologik xavfsizligi va mustahkamligi tufayli polimer loyidan turli bezakli buyumlar yaratishni istaganlar uchun mukammal tanlov desak adashmagan bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, polimer loyi bilan ishslash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qo‘l matorikalarini, ijodkorligini rivojlantirish mumkin. Polimer loyi bilan bo‘g‘liq mashg‘ulotlarni tashkil qilish bilan birga o‘quvchilarda kulolchilik kasb-hunariga oid boshlang‘ich bilimlar shakllantirib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldag‘i “Umumiyl o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs-6787995>.
2. Аскаров М.А., Жалилов А. Т., Синтез ионогенных полимеров, Тошкент., 1978 г.
3. Sharipov Sh., Qo‘ysinov O., Abdullayeva Q., va boshqalar. Texnologiya: Umumiyl o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinf uchun darslik.– T.: “Sharq” nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017-y.
4. Mannanova A.I., Sayfurov M.D., Texnologiya: Umumiyl o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinf uchun darslik.– T.: “O‘qituvchi”, 2020-y.
5. Jurayeva I.Z., Safarova O.M., Sovuq chinnidan ayollar zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. // Educational Research in Universal Sciences. _Volume 3, Issue 1, January-2024– P. 181-183. Scientific Journal Impact Factor: 5.564; ISSN: 2181-3515.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Texnika>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Panno>